

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”**

мавзудаги республика онлайн илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил 17-18 март. Бухоро

Kamolov J. YOZUVCHI FRNSIS BEKONNING INGLIZ ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI	331
Хажиева Ф. ЛАЙЛА ЛАЛАМИНИНГ "THE MOOR'S ACCOUNT" ТАРИХИЙ-БИОГРАФИК РОМАНИДА ПАРЕМИЯЛАР ТАҲЛИЛИ....	335
Rakhimova Sh. HISTORICAL OUTLINE OF FEMINISM IN BRITISH LITERATURE	339
М.Неъматова, Нигматова Л. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КЎМАКЧИ ФЕЪЛЛАРНИ ҚИЁСЛАБ ЎРГАНИШ	341
Radjabova D., Usmonova Y. COMPARISON AND CONTRAST OF FEMALE CHARACTERS IN JANE AUSTIN'S NOVELS	345
Сидиков Қ., Турсунов М. АФОРИЗМЛАР ТАРЖИМАСИ МАСАЛАЛАРИ.....	348
H.Yusupova. TARJIMADA TURG'UN BIRIKMA VA IBORALARNING BERILISHI.....	353
Azimova Sh. PRAGMALINGVISTIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXIGA NAZAR.....	357
V. ШЎЬБА. ЧЕТ ТИЛЛАРНИНГ БОШҚА ФАНЛАР БИЛАН АЛОҚАДОРЛИГИ.....	360
Нусратов А. ПЕДАГОГИК ФОЯЛАР МАЗМУНИНИ ЎРГАНИШДА УБАЙДИЙ ИЖОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ.....	360
Ибрагимов Ў. "ТОПОГРАФИЯ, КАРТОГРАФИЯ ВА ГАТ" ФАНИ ТАЛАБАЛАРДА КАРТОГРАФИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА.....	365
Сайдов И.И., Толибова О.Ю. ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ	368
Сайдов И.И., Турсунов М.Ш. ЎҶУВЧИЛАР Ўз-ўзини жисмоний ТАРБИЯЛАБ, СОГЛИФИНИ МУСТАҲКАМЛАШИ УЛАРНИ ҲАР ТОМОНЛАМА ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ.....	375
Хамраева Г., Махмудова М. ФИЗИКА ДАРСЛАРИДА ФИЗИК ТЕРМИНЛАРНИ ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЎРГАТИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ	380

PRAGMALINGVISTIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXIGA NAZAR

*Azimova Shahrinoz Ikromovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
shahrinoz.8882@mail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada pragmalingvistika fanining amaliy hamda nazariy rivojlanish bosqichlari va tarixi tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida o'rganilgan. Sohada olib borilgan tadqiqotlar va ularning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalitso'zlar: Pragmatika, pragmalingvistika, muloqot, nutq aktlari.

Ilm fan olamida hech bir fan yakka holda, boshqa fanlarga ta'sir etmasdan yoki boshqa fanlaming ta'sirisiz rivojlana olmaydi. Tilshunoslik fanining rivojlanish boshqichiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning turli davrlarda turli fan sohalari bilan aloqadorlikda rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida tilshunos olimlarning system tadqiqotlarni amalga oshirishi va tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi haqidagi yangicha qarashlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lди. Oxirgi yillarda tilshunoslikda eng ko'p tadqiqot va izlanishlar olib borilayotgan pragmalingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika va qiyosiy tipologiya kabi yangi yo'nalishlar ham psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa kabi fanlar bilan hamkorlikda rivojlanmoqda va o'z tadqiq metodologiyasi, falsafiy asosiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa til tabiatini anglash va tilning amaliy qo'llanishini tushunishda pragmalingvistikaning o'rni beqiyosdir. Pragmatikada ma'nova mazmun jihatlarini tahlil etish orqali amaliy masalalarning yechimini topishga keng e'tibor qaratilmoqda. Nutqiy muloqotning pragmatik xususiyatlarini anglashda nafaqat tilshunoslar yoki faylasuflar, balki ijtimoiy soha vakillari ham murojaat qilayotganligi pragmatikaning har tomonlama muhim soha ekanligini ko'rsatadi.

"Pragmatika" falsafiy tushuncha bo'lib, yunoncha "pragma" – ish-harakat ma'nosini anglatadi. U semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog' idir. [1,387]

Pragmatika tushunchasi konkret holat, shart-sharoitga monand ish ko'rish, moslashish, amal qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. Shuning uchun ham "pragmatik" atamasi "amaliy" degan ma'noda ham qo'llaniladi. Pragmatik fikrlash, pragmatik harakat qilish, pragmatik faoliyat ko'rsatish ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan pragmatik faoliyat deganda eng muhim ma'lumotni kam so'z bilan aniq, yaqqol va tushunarli ifodalash anglashiladi. [4,28]

Pragmatika tushunchasi dastlab Aristotel tomonidan qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik faylasuf olimlar J.Lokk va E.Kantlar tomonidan keng muomalaga olib kirildi. Falsafada paydo bo'lgan bu tushuncha XX asrga kelib pragmatizm

oqimining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu oqimning taraqqiyot davri shu asrning 20-30 yillariga to'g'ri kelgan bo'lsa, keyinchalik u tilshunoslik faniga ham kirib keldi. Pragmatika muammosini o'rganishga bag'ishlangan fikrlar Ch.Pirs, U.U.Jeymes, D.Dyun, Ch.Morris asarlarida o'rta ga tashlanib, keng miqiyosida o'rganildi. [2.471]

O'sha davrda Ch.Morris pragmatik nazariyasini semiotikaning bir bo'lagi sifatida semantika va sintaktika kabi bo'limlar bilan bir qatorga qo'yish fikrini ilgari suradi. Falsafiy pragmatizm oqimining lingvistikada o'z aksini topishida amerikalik olim Ch.Pirsning ham hissasi katta. U hamsemiotika doirasida uch ilmiy soha – sintaktika, semantika va pragmatikani mustaqil yo'naliishlar sifatida ajratib ko'rsatadi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining ma'no-mazmuni berilgan belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijasi, muvafaqqiyati bilan bog'liq holda o'rganishga qaratiladi. (3.41-43)

Pragmatikaning tilshunoslik bilan kesishish nuqtasidagi bosh g'oya bu-kommunikativ muloqotni ratsional va sababli jarayon sifatida tahlil etish, faqatgina lingvistik strukturalar bilan cheklanib qolmasdan, dunyoviy bilim, madaniy norma, kontekstning spesifik komponentlariga individual yondoshuvlar asosida tahlil qilish vazifalari turadi.

Lingvopragmatika sohasining keng taraqqiy etishida Amerika va Yevropa olimlari H.P.Grice, G.N.Leech, J.R.Searle, J.Ostin, G.Yule, S.C. Levinson, G.Lyons va boshqa bir qator tilshunoslarning hissalari katta. J.R.Searle va J.Ostinlar tomonidan yaratilgan "nutqiy akt" tushunchasi nutq muomalasi qoidalari va tartibiga bo'ysunadigan maqsadli nutqiy harakat sifatida tushuniladi. Ushbu nazariyaning asosiy tadqiqot obyektiga so'zlovchi, adresat va ularning o'zaro munosabati, muloqot vaziyati bilan bog'liq qator masalalar kiradi. J.Ostin o'z tadqiqotlarida muloqot jarayonida darak, so'roq, buyruqni ifodalovchi nutqiy aktlardan tashqari fikrni aniq va yaqqol ifodalovchi verdiktiv, ekzersitiv, komissiv, bexabitiv, ekspozitiv kabi bir qator nutqiy aktlarni ham taklif etadi. Uning nazariyasida taklif etilgan nutqiy aktlar orqali hukm chiqarish, maslahat berish, va'da berish, jamoada o'zini tutish yoki birovni hattiharakatiga munosabat bildirish, fikrni izohlash, tasdiqlash kabi aniq maqsadga yo'naltirilgan lisoniy faoliyatni amalgalash mumkin.

Tilshunoslikning ushbu sohasini so'zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasi sifatida tadqiq etgan tilshunos olim H.P.Grice muloqot tamoyillariga alohida urg'u beradi. U samarali muloqotning asosi sifatida mavzuga oidlik tamoyili, muloqot uslubi tamoyili, miqdor hamda sifat tamoyillarini keltirib o'tadi.

Jadal suratlar bilan taraqqiy etayotgan pragmalingvistika fani mamlakatimiz tilshunos olimlarining ham nazaridan chetda qolmadidi. Tildan amalda foydalanish, nutq adresati, o'zaro aloqaga kirishuvchilarining munosabatlari, muloqot vaziyati, nutq taktikasi kabi qator masalalar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlarning ko'lami ortib bormoqda. Sh.Safarov, M.Hakimov, A.Mamatov, D.Ashurova, B.Yo'idoshev, Z.Rasulov va boshqa bir qator

tilshunos olimlar yurtimizda pragmalingvistika sohasining rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Xulosa o'mida shuni aytish lozimki, lingvopragmatika tilshunoslikda lisoniy va nutqiy hodisalarni nazariy va amaliy o'rganish, lisoniy struktur munosabatlarni aniqlash vazifalarining to'la ma'noda bajarilishi natijasida yuzaga kelgan yo'nalish sifatida o'z o'mi va tadqiq metodologiyasiga ega fandir. Fikrimizning isboti sifatida o'zbek pragmalingvistika taraqqiyotida o'z o'miga ega olim Sh.Safarovning quyidagi fikrlarini eslashni joiz deb topdik. "Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi".[3.40]

Tilshunoslik fani taraqqiyotining so'ngi yillarida lingvopragmatik tadqiqtolarga keng yo'l ochilishi til birliklarining nutq ishtirokchilari, ularning til ko'nikmalari hamda nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari, nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog'liq xususiyatlari yuzasidan qimmatli nazariy qarashlar yuzaga keldi. Ammo, ushbu yo'nalishda hali ilmiy izohini topmagan muammolar talaygina.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. П харфи. www.ziyouz.com кутубхонаси.
2. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. ХУ1. М – 1985.
3. Сафаров Ш., Прагмалингвистика. Т – 2008.
4. Сайдалиев С., Прагматик лингвистиканинг асосий масалалари// Тилшуносликдаги замонавий йўналишлар: муаммо ва ечимлар. Андижон – 2020.